Polietilen qadoq qog‘oz va shishadan ekologik jihatdan qulayroq ekanligi ma’lum bo‘ldi

// 24 February 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/polietilen-qadoq-qog-oz-va-shishadan-ekologik-jihatdan-qulay



Michigan universiteti olimlari polietilen (PE) qadoqlash materiallarining atrof-muhitga potensial ta’sirini muqobil mahsulotlar (qog‘oz, shisha, alyuminiy va po‘lat) bilan solishtirgan holda ilmiy tadqiqot o‘tkazishdi.

Tadqiqotlar qadoqlashda plastikdan foydalanish atrof-muhitga avval o‘ylanganidan kamroq ta’sir qilishini ko‘rsatdi.

Bu haqda Science of The Total Environment ilmiy jurnalida chop etilgan “AQSHda polietilen qadoqlash va muqobil materiallar: hayot siklini baholash” mavzusidagi maqolada so‘z borgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, "an’anaviy" materiallarni PE bilan almashtirish ko‘p holatlarda issiqxona gazlari tashlanmalarini taxminan 70% ga kamaytirishi mumkin. Plastik qadoqlarning ayrim toifalarini ishlab chiqarishda qazib olinadigan energiya, mineral resurslar va suvdan sezilarli darajada kamroq foydalanilishi ham isbolangan.

Tadqiqot davomida AQSHda plastik qadoqlash umumiy savdosining taxminan 60% ni tashkil etadigan beshta asosiy toifa o‘rganib chiqildi. Ular orasida oziq-ovqat uchun idishlar, palletlarni qadoqlash uchun

termoqisqaradigan va streych plyonkalar, yuqori mustahkamlikdagi qoplar (HDS) va plastik paketlar bor edi. PE mahsulotlari va muqobil qadoqlash o‘rtasidagi taqqoslash atrof-muhitga ta’sir qilishning to‘rtta asosiy parametriga asoslandi.

Olib borilgan o‘rganish natijalariga ko‘ra, shisha, alyuminiy va po‘latdan tayyorlangan qadoqlar ularning og‘irligi va ishlab chiqarishning energiya sarfi tufayli atrof-muhitga sezilarli darajada ko‘proq ta’sir qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, qog‘ozga asoslangan alternativalar atrof-muhitga ba’zan bir xil yoki nisbatan kamroq ta’sir qiladi. Biroq ularni ishlab chiqarish uchun ko‘proq resurslar sarflash talab qilinadi va boz ustiga resurslarning ba’zilari esa chiqindiga ketadi.